


2021- yilning yanvar-may oylarida Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Iqtisodiyotda xizmatlar sohasi o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabilar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalariga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

2021- yilning yanvar- may oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi




Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4173.6 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 1050.3 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 122.0 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.


















Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**
(2021- yilning yanvar-may oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	4173.6	122.0
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	221,2	108,6
Moliyaviy xizmatlar	728,2	125,1
Transport xizmatlari	766,4	123,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	701,1	123,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	88,8	117,7
Savdo xizmatlari	1 322,2	112,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	103,8	128,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	197,1	137,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	94,1	141,7
Ijara xizmatlari	103,2	148,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	112,7	138,0
Shaxsiy xizmatlar	262,8	135,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	68,9	133,9
Boshqa xizmatlar	104,2	134,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2021- yilning yanvar-may oylarida ularning ulushi 31.7 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga,


yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (18,4 %), moliyaviy xizmatlar (17,4 %), boshqa shaxsiy xizmatlar (6,3 %) qayd etildi.

Eng yuqori ulush 		Eng past ulush 			
	Savdo xizmatlari	31,7 %		Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,5 %
		33,9 %		2,4 %	
	Transport xizmatlari	18,4 %		Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari	2,7 %
		17,5 %		2,2 %	
	Moliyaviy xizmatlar	17,4 %		Boshqa xizmatlar	2,5 %
		18,0 %		2,3 %	
	Shaxsiy xizmatlar	6,3 %		Ijara xizmatlari	2,5 %
		5,4 %		2,0 %	
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5,3 %		Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2,2 %
		6,3 %		2,1 %	
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	4,7 %		Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2,3 %
		4,5 %		1,9 %	
	Yanvar-may 2020- y.			Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,6 %
	Yanvar-may 2021- y.			1,5 %	

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 2,3 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari - 2,1 % ga to'g'ri keldi.

Yuqori o'sish savdo xizmatlari (31,7 %), transport xizmatlari (18,4 %), shuningdek moliyaviy xizmatlari (17,4 %)da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi



Avtomobil transport xizmatlarining ulushi 91,5 % ni tashkil etdi.

Omborxon va yordamchi transport xizmatlarining hajmi 8,3 % ni tashkil etdi.


Pochta va kuryerlik xizmatlarning ulushi 0,3 % ni qayd etdi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-may oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 31.7 % ni tashkil etib, bu 1322.2 mlrd. so'mga teng bo'ldi.


Savdo xizmatlari tarkibi, % da
(2021-yilning yanvar-may oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining 77.7 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 17.1 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning



ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar

(2021- yilning yanvar-may oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 728.2 mlrd. so'mni - tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-may oylarining hajmi 564.2 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 17.4 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-may oylarida ularning ulushi 18.0 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 125.1 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.




Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 125.1 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-may oylarida ularning o'sish sur'ati 126.4 % ga yetgan.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.



2021- yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 728.2 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 125.1 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (91.3 %) tashkil etadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2021- yil yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 221.2 mlrd. so‘m darajasida belgilandi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o‘shish sur‘ati 108.6 % ga yetdi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



Aloqa va axborotlash-tirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekom-munikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog‘i, yo‘ldoshli aloqa xizmatlari va bosh-qalar) egallab, 96,9 % ni tashkil etdi. Nashriyot xizmatlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 2,2 % ni tashkil etadi. Axborot sohasidagi xizmatlar umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,4 % ni tashkil etadi. Boshqa aloqa xizmatlari 0,1 % ni tashkil etadi. Kompyuter dasturlashtirish bo'yicha xizmatlar 0,3 % ni tashkil etadi.


Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2021- yilning yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 197.1 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 137.4 % ni tashkil etdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2021- yil yanvar-may oylarida)


O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 117.7 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 88.8 mlrd. so'mga teng bo'lgan. Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 2,1 % ni tashkil etdi.



2020- yil yanvar-may oyiga nisbatan turar joy va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi 24.0 mlrd. so'mga ko'paydi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2021- yilning yanvar-may oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yi-cha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 79.8 % bilan ustunlik qiladi.

2021- yilning yanvar-may oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 20.2 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

(2021-yilning yanvar-may oylarida)

2021- yilning yanvar-may oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 94.1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 141.7 % ni tashkil etdi.


Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 2,3 % ni tashkil qildi.



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2021- yilning yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1452.6 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 119.5 % ni tashkil etdi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

(69) 211-72-00